**A.Qodiriy nomidagi Jizzax deavlat Pedagogika Instituti Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bitiruvchisi Hasanova Ma'rifat tomonidan „ Pedagogika kolleji talabalarini pedagogik tayyorlash masalalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga .**

**T A Q R I Z.**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida „Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pegagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi , ularning faolyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi", - deb ta'kidlab o'tiladi . Raqobatga asoslangan mehnat muhitini vujudga keltirishning asosiy omillaridan biri o['quvchilarni innovatsion faolyatga yo'naltirish orqali ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogic texnalogioyalarni tadbiq etish , o'quvchilarga bilim berishni kafolatlash handa ta'lim samaradorligiga erishishdan iboratdir.

Zamon shiddat bilan o9'zgarib borar ekan , ta'lim sohasi ham u bilan barobar o'zgaradi va o'qituvchidan o'z faolyatini o'zgartirishni talab etadi . Bugun o'qituvchining asosiy vazifasi nafaqat ta'lim berishgina emas , balki boshqaruvchilikdan iborat bo'lib , u ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish talab etilmoqda . Innovatsion faolyat o'qituvchining hamma muvaffaqqyatini belgilovchi asosiy faolyat bo'lib , u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir. Ana shu jihatdan pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi Hasanova Ma'rifat bo'lajak tarbiyachilarni inovatsion faolyatga tayyorlashda trening mashg'ulotlaridan foydalanish masalasini tadqiq etilganligi e'tiborga molik.

BMI kirish , uch bob, olti paragraph, xulosa va tavsiyalar , foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat.

Talaba BMI doirasida quyidagi vazifalarni muvaffaqqiyatli hal etgan:

1. „Inovatsion faolyat" tushunchasining mazmuni va mohiyatini yoritib berish.
2. Inonovatsion faolyatni tashkil etish zaruriyati va omillarini aniqlashtirish.
3. Trening mashg'ulotlarini o'tkazishni amaliy texnalogik jihatlarini bayon etish.
4. Pedagogika kolleji o'quvchilarini innovatsion faolyatga tayyorlashda trening mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi ko'rsatib berish..

Tadqiqotdan olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan trening mashg'ulotlari dasturi va ishlanmalari pedagogika kolleji o'quvchilarini inovatsion faolyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi . Tadqiqotnng natija va g'oyalaridan to'garak mashg'ulotlari xamda innovatsion guruhlari ishini tashkil etish jarayonida foydalanish mumkin. Mazkur BMI alohida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mazmunan boy va tizimli bayon etilgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda , Hasanova Ma'rifat ning „Trening - bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faolyatga tayyorlash omili sifatida (Pedagogika kollejlari misolida) " mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini ochiq ximoyaga tavsiya etaman.

Ma'lumki , bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga itilmoqda . Bugungi yangiliklar ularga uyushgan , rejali ommaviy yondashuvni talab etadi . Yangiliklar kelajak uchu uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish yan gilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lish , unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ta'lim huddi global jamoatchilik tizimning asosi sifatida jamiyatda bo'layotgan batcha o'zgarishlarni hisobga olish shuninhdek, o'zining tuzilishi va faolyat mazmunini o'zgartirishi kerak bo'ladi. Ta'lim ham jamoatchilik vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar bilan uyg'un bo'lishi va jamiyatdagi o'zgarish va rivojlanishga o'z ta'sirini o'tkaza olishi lozim. Mazkur xolat bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faolyatga samarali tayyorlashni shart qilib qo'yadi. Ana shu jihatdan Hasanova Ma'rifat „Terining bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faolyatga tayyorlash omili sifatida ( Pedagogika kollejlari misolida) " mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi alohida amaliy ahamiyatga ega.

BMI kirish, uch bobo, olti paragraph, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

BMIning birinchi bobi ,,Bo'lajak Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faolyatga tayyorlash - muhim pedagogic muammo sifatida " deb nomlangan bo'lib mazkur bobda ,,innovatsion faolyat " tushunchasi , uning mohiyati va o'rganilganlik garajasi hamda innovatsion faolyatni tashkil qilish zaruriyati a omillari yoritib berilgan.

BMIning ,,Peagogika kolleji o'quvchilarini inovatsion faolyatga tayyorlashda trening mashg'ulotidan foydalanish yo'llari" deb nomlangan ikkinchi bobida treing mashg'ulotlarini tashkil etishning amaliy – tehnalogik jihatlari hamda pedagogika kolleji o'quvchilarini onnovatsion faolyatga tayyorlashda trening mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi bayon etilgan.

BMIning uchinchi bobida ,, Pedagogka kolleji o'quvchilarini inovatsion faolyatga tayyorlash samaradorligi " deb nomlangan bo'lib , unda pedagogika kolleji o'quvchilarini i9novatsion faolyatga tayyorlashga doir tajriba – sinov ishlari mazmuni va natijalari yoritib berilgan..

Ishda bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faolyatga tayyorlash bosqichlari hamda ,,Bo'lajak tarbiyachilarda ijobiy faolyatni rivojlantirish " mavzusidagi seminar- trening dasturi mazmunining keltirib o'tilganligi ishning muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda , Hasanova Ma'rifat ning ,,Trening - bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faolyatga tayyorlash omili sifatida (Pedagogika kollejlari misolida) " mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini DAK talablariga to'liq javob beradi va uni ximoyaga tavsiya etaman .

**A.Qodiriy nomidagi Jizzax deavlat Pedagogika Instituti Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bitiruvchisi Hasanova Ma'rifat tomonidan „ Pedagogika kolleji talabalarini pedagogik tayyorlash masalalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

**X U L O S A S I.**

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq , uzluksiz ta'lim t5izimining asosiy turlaridan biri kasb – hunar kollejlari ekanligiga guvoh bo'lamiz . Kasb hunar kollejlari o'quvchilarining kasb hunarga moyilligi , bilim va ko'nikmalarni chuqur rivojlantirish , tanlab olingan kasb hunar bo'yicha bir yoki bir nechta ixtisosni egallsh imkonioni beradi. Pedagogika kollejlari ham ana shunday turdagi ta'lim muassasalari qatoriga kiradi. Pedagogika kollejlarida „kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachisi" , „ boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at va mehnat tarbiyasi rahbari", „tarbiyaviy ishlar katta yetakchisi" kasblari bo'yicha mutahasislar tayyorlanadi.

Bugungi kunda pedagogika kollejlarida bo'lajak tarbiyachilarni inovatsion faolyatga tayyorlash alohida ahamiat kasb etmoqda. Chunki ta'lim amaliyatiga pedagogic innovatsiyalarni jadallikbilan kirib kelushi, mazkur innovatsiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishga qodir mutaxasis shaxsini shakllantirishni taqazo etadi. Ana shu jihatdan Hasanova Ma'rifat tomonidan „ Pedagogika kolleji talabalarini pedagogik tayyorlash masalalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi alohida amaliy ahamiyatga ega.

BMI kirish, uch bob olti paragraph, xulosa va tavsiyalar , foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat.

BMIning birinchi bobida „ Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faolyatga tayyorlash - muhim pedagogic muammo sifatida " deb nomlangan bo'lib mazkur bobda „innovatsion faolyat " tushunchasi , uning mohiyati va o'rganilganlik garajasi hamda innovatsion faolyatni tashkil qilish zaruriyati a omillari yoritib berilgan.

Talaba mazkur vazifalarni hal etish maqsadida muammoning asosiy tushunchalari " „ innovatsiya" , „ innovatsion faolyat" , „inovatsion faolyatga tayyorlash" tushunchalarining mazmuni va mohiyatini ilmiytarzda ochib bergan. Innovatsion faolyatni tashkil etish zaruriyatini asoslashda ta'lim va tarbiyaga qo'yiladiga zamonaviy talablar nuqtai nazaridan yondashgan hamda o'quvchining inovatsion faolyatini tashkil etishda yuzaga keluvchi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llariga alohida etibor qaratilgan.

BMIning „Peagogika kolleji o'quvchilarini inovatsion faolyatga tayyorlashda trening mashg'ulotidan foydalanish yo'llari" deb nomlangan ikkinchi bobida treing mashg'ulotlarini tashkil etishning amaliy – tehnalogik jihatlari hamda pedagogika kolleji o'quvchilarini onnovatsion faolyatga tayyorlashda trening mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi bayon etilgan.

Ishda bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faolyatga tayyorlashda trening mashg'ulotlariga alohida e'tibor qaratilgan . Pedagogika kolleji o'quvchilarini innovatsion faolyatga tayyorlash maqsadida „ Bo'lajak tarbiyachilarda ijodiy faolyatni rivojlanti8rish " mavzusida qisqa muddatli seminar- trening tashkil etilgan . Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion salohiyatini oshirishda trening mashg'ulotlari alohida ahamiyatga ega bo'lganligi qayd etib o'tilgan.

Trening mashg'ulotlari jarayonida bo'lajak tarbiyachilar innovatsiyalar , ularning tasnifi, didaktik hamda tarbiyaviy innovatsion g'oyalarga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirilgan. Mazkur bilimlari o'zlashtirishlariga erishish maqsadida „Erkin yozish", „Ikki qismli kundaliklar" , „O'qitish bo'yicha qo'llanma" , T-chizma" , kabi interfaol metodlardan foydalanilgan. Trening mashg'ulotlari asosida bo'lajak tarbiyalanuvchilarni innovatsion faolyatga tayyorlash bosqichlari aniqlangan . Tajriba – sinov ishlari pedagogika kolleji o'quvchilarini inovatsion faolyatga tayyorlashda qisqa va o'rtacha muddatli treninglarhan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatadi.

BMIning uchinchi bobida „ Pedagogka kolleji o'quvchilarini inovatsion faolyatga tayyorlash samaradorligi " deb nomlangan bo'lib , unda pedagogika kolleji o'quvchilarini i9novatsion faolyatga tayyorlashga doir tajriba – sinov ishlari mazmuni va natijalari yoritib berilgan..

Bo'lajak tarbiyachilarni inovatsion faolyatga tayyorgarlik darajasini aniqlsh mezonlarini ishlab chiqish jarayonida mazkur faolyatning shakllanganlik darajasiga kio'ra pedagogi8ka kolleji

o'quvchilarini uch guruhga ajratib , tahlil qilingan va ularning tayorgarlik darajasi ekspert baholash metodi yordamida aniqlangan.

Umuman olganda, Hasanova Ma'rifat tomonidan ,, Pedagogika kolleji talabalarini pedagogik tayyorlash masalalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi mustaqil bajarilga, tugatilgan ish bo'lib , DAK talablariga to'liq javob beradi. Ana shu sababli ishni ximoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:** **A.B.Qayumov**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**
**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**
**PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI**
**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika-psixologiya fakulteti

Dekani v/b__________dots.R.Abdurasulov
“____” ___________________ 2014 y.

5140800– Pedagogika – psixologiya yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

# Pedagogika kolliji talabalarining pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalari

mavzusida bajarilgan

# BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Bajaruvchi: Hasanova Ma’rifat**
**Ilmiy rahbar: kat.o’qit.A.Qayumov**

Ishni himoyaga tavsiya etaman kat.o’qit.A.Qayumov ___________
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

BMI “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi ___ sonli yig’ilish qarori bilan
( ____, __________ 2014 y) himoyaga tavsiya etilgan
**Kafedra mudiri: p.f.n.I.To’raqulova**_________
(ismi va sharifi) (imzo)

**Jizzax – 2014**

## Mundarija:

I-Bob. Bo`lajak o`qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash-muhim pedagogic muammo sifatida.

1.1. “Inovatsion faoliyat” tushunchasi, uning mohiyati va o`rganilganlik darajasi.

1.2. Inovatsion faoliyatni tashkil qilish zaruriyati va olimlari.

II-Bob. Pedagogika koleji o`quvchlarini inopvatsion pedagogi faoliyati tayyorlashda trening mashg`ulatlaridan foydalanish yo`llari.

2.1. Trening mashg`ulotlarini tashkil etishning amaliy texnologik jihatlari.

2.2. Pedagogika kolieji o`quvchilarini inovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulatlarini o`tgazish metodikasi.

III-Bob. Pedagogika kolleji o`quvchilarini inovatsion faoliyatga tayyorlash samaradorligi.

3.1. Pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir tajriba-sinov ishlash mazmuni.

3.2. Pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion pedagogic faoliyatga tayyorlashga doir tajriba-sinov ishlari natijalari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Ilovalar.

# Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O`zekiston Respuplikasida mystaqillik yillarida uzliksiz ta`lim tizimini takomillashtirish, jahon ta`limi standardlari darajasida shaxsga ta`lim berish va ijtimoiy tarbiya samaradorligi oshirish davlat siyosatining ustivor yo`nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jamiyat ma`naviyatini yuksaltirishga bo`lgan ijtimoiy extiyojni qondirish talabi ta`lim tizimini takomillashtirishni taqazo etadi. Bu o`rinda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni takidlaydi: "Ta`lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya`ni xalq ma`naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta`lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o`zgartirmasdan turib, ma`naviyatni rivojlantirib bo`lmaydi".

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq, uzliksiz ta`lim tizimining asosiy turlaridan biri kasb-hunar kollejlari ekanligiga guvoh bo`lamiz. Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko`nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo`yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi. Pedagogika kollejlari ham ana shunday turdagi ta`lim muassasalari qatoriga kiradi. Pedagogika kollejlarida "kuni uzaytirilgan gurux tarbiyachisi", "boshlang`ich sinflarda tacviriy san`at va mehnat tarbiyasi rahbari", "tarbiyaviy ishlar katta yetakchisi" kasblari bo`yicha mutaxasislar tayyorlanadi.

Bugungi kunda pedagogika kollejlarida bo`lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta`lim amaliyotiga pedagogik innovatsiyalarning jadallik bilan kirib kelishi, mazkur innovatsionlarni o`zlashtirish va amaliyotga joriy etishga qodir mutaxasislar shaxsini shakllantirishni taqazo etadi.

Inovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg`a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an`anaviy me`yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning

yangi qo`llanilayotgan me`yorining mavjud mayor bilan to`qnashuvi natijasida vujudga keluvchi majmuali muammolarning yechimiga qaratilgan faoliyatdir.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** Pedagogik ta`limni tashkil etishning psixologik xususiyatlari, pegagog kadrlarni tayyorlash, ularda kasbiy sifatlarni takomillashtirish masalari M. Ochilov, M.A. Abdyllajonov, O.A.Abdullaeva, X. Abdukarimov, N.N.Azizxodjaeva, L.M.Mitana, K.Angiloviskiy, F.R. Yuzlikaev, V.I.Andreev, V.V.Anisimov, O.G. Garoxoli`skaya, V.A. Slastenin, E.B. Bozorov, O. A.Musurmonova, G. Y. Vavilova, B.Z. Vul`fov, M.G. Davletshin, B.R. Djuraeva, Sh.N. Majidova, Sh.Q. Mardfonov, N.M. Egamberdieva, A.N. Markova, E.I. Passov, G.I. Maxmudova, M.Y.Maxkamova, S.I. Jalilova, N.Ochilova, B.X.Rahimov, N.M.Romanenko, K.F.Teshaboyeva, K.Tillayev, B.M.Turdiboeva, X.A.To`raqulov, M.M.Potashnik, N.O`rinova, Sh. Sodiqova va boshqalar tomonidan o`rganilgan.

O`qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalasi esa R.Sh. Ahliddinov, U.Inayatov, C,Yurg`unov, A,D,Dyomin, L.M.Palaxova, T.I.Kravchenko, A.A.Tixomirov, L.M. Danyakina, L.A. Volchan, S.V.Korsakov, S.V.Garasimenko, G.G.Shek, O.L.Nazarova, A.P.Volchkova, N.Mamadova, Sh.Zufarovlarning boshqaruv nazariyasiga doir tadqiqotlarida hamda M.Jumaniyozova, D.Yunusova, M. Karimova, kabilarning o`qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga masalalari bayon etilgan.

Biroq trening mashg`ulotlari orqali pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosi bitiruv malakaviy ishi doirasida alohida tadqiq etilmagan. Ana shu sababli biz bitiruv malakaviy ish mavzusini “Pedagogika kolliji talabalarining pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalari ” tarzida tanladik.

**Ishning maqsadi-** pedagogika kolliji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotlaridan foydalanish yillarini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

1. “Innovatsion faoliyati” tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berish.

2. Innovatsion faoliyatni tashkil etish zaruriyati va omillarini aniqlashtirish.

3. Trening mashg`ulotlarini o`tkazishning amaliy-texnalogik jihatlarini bayon etish.

4. Pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotlarini o`tkazish metodikasini ko`rsatib berish.

**Tadqiqot ob`ekti:** pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni.

**Tadqiqot predmeti –** pegagogika koleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulatlaridan faydalanish mazmuni va yo`llari.

**Tadqiqot metodlari:** Mavzuga oid ilmiy-nazariy adabiyotlarni, o`rganish va tahlil qilish; so`rovnoma, suxbat, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O`zbekiston Respublikasining Konistitutsiyasi, “Ta`lim to`g`risoda”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining o`rta mahsus, kasb-hunar talimi sifatida oshirishga doir Farmon va qarorlari, pedagok faoliyatiga doir zamonaviy yondashuvlar, innovatsion faoliyati tashkil etishga doir falsafiy, pedagogic nazariya vat a`limotlar.

**Tadqiqot farazi.** Agar:

1) “innovatsion faoliyat” tushunchasi mohiyatini ochib beruvchi tushunchalar mazmuni yoriyib berilsa;

2) Innovatsion faoliyatni tashkil etish zaruriyati va omillarini aniqlashtirish;

3) Trening mashg`ulotlarini o`tkazish bosqichlari, qo`llaniladigan usullar tizimlashtirilsa;

4) Pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotlarini o`tkazish metodikasi ko`rsatib berilsa, mazkur jarayon samaradorligi ortadi.

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

1. “Innovatsion faoliyat”tushunchasining mazmun va mohiyati.
2. Innovatsion faoliyatni tashkil etish zaruriyati va omillari.
3. Trening mashg`ulotlarini o`tkazishning amaliy-texnalogik jihatlari.
4. Pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotlarini o`tkazishni innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotl;arini o`tkazish metodikasi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi**.

1. Trening mashg`ulotlarini o`tkazishning amaliy-texnologik jihatlari yoritib borildi.

2. Pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotlarini o`tkazish metodikasi ko`rsatib berildi.

**Tadqiqotning ilmiy-amaliy azamiyati.** Tadqiqotdan olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan trening mashg`ulotlari dasturi va ishlanmalari pedagogika kolleji o`quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning natija va g`oyalaridan to`garak mashg`ulotlari hamda innovatsion guruhlari ishini tashkil etish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalaridan** pedagogika kollejlarining rahbarlari, o`quvchilar va metodistlar foydalanishlari mumkin.

**Ishning tuzilishi.** BMT uch bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati xamda ilovadan iborat.

# I.BOB. Bo`lajak o`qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyarlash-muhim pedagogis muammo sifatida

## 1.1. “Innovatsion faoliyat”tushunchasi, uning mohiyati va o`rganilganlik darajasi

Ma`lumki, bugun barcha davlatlar talimga imkon qadar ko`p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yongashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investistiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg`otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta`limning o`zi yangiliklarga boy bo`lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ta`lim huddi global jamoatchilik tizimining asosi sifatida jamiyatda bo`latotgan barcha o`zgarishlarni hisobga olish, shuningdek, o`zining tuzilishi va faoliyat mazmunini o`zgartirishi kerak bo`ladi. Ta`lim ham jamoatchilik vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o`zgarishlar bilan uyg`un bo`lishi va jamiyatdagi o`zgarish va rivojlanishga o`z ta`sirini o`tkaza olishi lozim. Biroq jamiyat va ta`lim o`rtasidagi munosabat murakkab shakilga ega bo`lib, yuqori darajadagi jo`shqinlik bilan tavsiflanadi. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta`limdagi o`zgarishlar faqatgina natija sifatidagina emas, balki jamiyatning kelgusidagi o`ziga xos rivojlanishi sharti tarzida yuzaga chiqadi.

So`ngi yillarda ta`lim muassasalarining rivojlanish jarayonini o`rganadigan va yangi ta`lim amaliyotni yaratishga yo`naltirilgan pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik innovatika fani yuzaga keldi. Pedagogik innovatikaning maqsadi pedagogik yangiliklarni yaratilishi, ularning baholanishi hamda pedagoklar jamoasi tomonidan o`zgartirilishi, shu bilan birga yni amaliyotda qo`llash va foydalanish yo`llarini tadbiq etishdan iborat. Ana shu asosdan kelib chiqib, yangiliklarni yaratish, o`zlashtirish va keng ommaga tarqatishni pedagogic innovatikaning predmeti sifatida qabo`l qilish mumkin.

Tanlangan muammo yechimini topishga yo`naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonini yoritishda ustivor bo`lgan tushunchalar mohiyatini to`g`ri anglab olish tadqiqot yo`nalishini to`g`ri belgilashga imkon beradi. Shu sababli dastlab ustivor tushunchalarni aniqlashga e`tabor qaratidi va ular quyidagilar ekanligi aniqlandi: innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat.

"Innovatsiya" tushunchasi lotin tilidan olingan bo`lib (in-ga, novus-yangi), "yangilanish", "o`zlashtirish" "qandaydir yangilikni kiritish", "tangini hosil qilish", "yangilik kiritish" ma`nolarini beradi. O`z navbatida "yangi" so`zi ushbu tushunchaning asosiy yadrosini tashkil etadi. Odatda, yangilanish tushunchasi ta`limda ko`p xollarda o`zgartirish tushunchasi bilan sinonimdir. Agar ushbu o`zgartirish keng qamrovli bo`lsa va butun ta`lim tizimini o`zgartirsa, unda "islohat" tushunchasi bilan izohlanadi. Lekin barcha o`zgarishlarni yangilik deb qarash to`g`ri bo`lmaydi. Chunki yangilik o`ziga avval boshidanoq qo`yilgan vazifalarning yangilanishini maqsad qilib qo`yadi.

Pedagogik inovatikaning asosiy ko`rsatkichi uning boshlang`ich rivojiga bog`liq bo`lib, pedagogikadagi yangilik – bu faqatgina g`oya, yondashuv, metod, texnologiya, shunchakii taqdim etilgan va xali faydalanilmagan holatdagi emas balki bu innovatsion jarayonning majmuaviy va alohida tarkibiy qismidir, u esa o`ziga o`zgaruvchan sharoitlarda va holatlarda ta`lim-tarbiya masalalarini yetarlicha samarali hal etishni ifoda etadi.

Iovatsion esa – bu ma`lum bir bosqich asosida rivojlanadigan jarayondir. U bir nechta ma`nodagi tushunchalarni beradi:

1. Innovatsiya bu – ta`limning yangi mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish.

2. Yaratilgan pedagogik tizimni joriy etish va ommalashtirish.

3. Ta`lim muassasani boshqarish va rivojlantirishning yangi texnalogiyasini ishlab chiqish.

4. Tajriba-sinov ob`ekti sifatida.

5.Yaxlit pedagogic jarayonini innovatsiyalash.

6. Yangiliklarning qo`llanilish darajasini yangi mahsuldaorliklar bilan o`zgartirish bosqichi.

Respunlikamiz olimlari Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M,Quronov, R.Sh.Ahliddihov, I.Majidov, S.Turg`unov, N.Erkaboeva, M.jumaniyozova, Sh. Zufarovlar inno vatsiyalarning gta`lim makonidagi xilma-xil tashabbuslar va yangiliklarning to`plamini va shaklini o`zgartirishi tamotillarida o`z ifodasini topuvchi, ta`limni pivojlantirishning muhim unsurlari sifatida quyidagicha ta`riflaydi. Jumladan, S.Turg`unov innovatsiyalar- xilma-xil tashabbuslar va yangiliklar asosida vujudga keladigan ta`lim evolyutsiyasi uchun istiqbolli bo`ladi hamda uning rivojlanishiga, shuningdek, ancha keng mul`timadaniy ta`lim makoning rivojlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadigan aktual ahamiyatli va o`zi tizm hosil qiladigan yangi narsalar ekanligini alohida ta`kidlab o`tadi. N. Erkaboeva esa, innovatsiyani yangilik kiritish, tizim ichida o`zgarishlar yaratish, deb izohlasa, M.Jumaniyozova innovatsiya-nazariya va amaliyotning muhim qicmi bo`lib, ijtimoiy sub`eklarning harakat tizimi, deb ta`rif beradi. Boshqaruv nazariyasiga doir tadqiqotlarni tahlil etish asosida shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan Sh. Zufarov “innovatsiya tushunchasi mazmunan “yangi”, “yangilik”tushunchalarining aynan o`zi emas. Istalgan yangilik, qachonki amaliy faoliyatda o`zining keng qamrovli samarasini bersa va keng ko`lamli ehtiyoj ob`ektiga aylansagina, tom ma`nodagi innovatsiya deb atash mumkin bo`ladi”, degan fikrni o`qtirib o`tadi.

Pedagogik innovatsiya-mutaxassislarni yangicha sharoitlarga ishlashga tayyorlovchi jarayon bo`lib, oldingi egallangan bilimlar asosida ijobiy pedagogic samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnalogiyasini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bunda ta`limning maqsadi, mazmun-mohiyati, tamoyillarining tanlash, to`plash va qo`llashning innovatsion usullarini va ularda foydalanishga doir uslubiy tavsiyalar yaratish tushiniladi. Pedagogic innovatsiyalar keng qamrovli, murakkab va ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo`lib, uning yordamida ta`lim-tarbiya jarayoning istiqbolli va samarali uslubiyotini yaratish mumkin.

“Innovatsiya” va “innovatsion jarayonlar” iboralarini o`zaro yaqin va o`xshash, lekin boir xil ma`noni anglatmaydi. Innovatsion jafrayon innovatsiyallarni vujudga keltirish, amaliyotga tatbiq etish va ommalashtirish faoliyatlari bilan bog`liq.

O.G.Xomeriki o`quv-tarbiya jarayoning u yoki bu tarkibiy qicmi bilan bog`liqlikda innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko`rsatadi:

1) ta`lim mazmuniga doir innovatsiyalar;

2) o`quv-tqrbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnalogiyasiga doir innovatsiyalar;

3) o`quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovatsiyalar;

4) ta`lim tizimini boshqarishga doir innovatsiyalar.

M.M.Potashnik va V.S.Lazarevlar ta`limda qo`llanilish ko`lamiga ko`ra innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko`rsatishadi:

1) lokal, alohida, o`zaro bog`lanmagan xususiy innovatsiyalar;

2) o`zaro bog`langan, xususiy innovatsiyalar majmuini ifoda etuvchi modulli innovatsiyalar;

3) butun ta`lim muassasini qamrab oluvchi tizmli innovatsiyalar.

Yangilikning o`zgarish tezligi va yangilik darajasiga ko`ra innobatsiyalarning ko`proq detallashtirilgan tasnifini N.Y.Postalyuk quyidagicha taklif etadi:

1. Nulevoy raqamli innovatsiyalar – tizimning dastlabki xususiyatlarini regenerasiya qilish (An`anaviy ta`lim tizimi yoki uning elementlarini qayta ishlab chiqish).

2. Birinchi raqamli innovatsiyalar tizmda miqdor o`zgarishlar kiritish bilan tavsiflanadi.bunda innovatsiyaning dastlabki sifati o`zgarmaydi.

3. Ikkinchi raqamli innovatsiyalar esa, tizm ichidagi elementlarni qayta guruhlashtirish yoki tashkiliy jihatlarini o`zgartirish bilan tavsiflanadi(masalan, mavjud pedagogic vositalarning yangi ko`rinishi, ketma-ketligini o`zgartirish, ulardan foydalanish qoidalari va boshqalar).

4. Uchinchi raqamli innovatsiyalar ta`lim tizimining yangi shart-sharoitlarga moslashuvchan o`zgarishini o`zida ifoda etadi.

5. To`rtinchi raqamli innovatsiyalar yangi yechimga ega bo`ladi(bular ko`pincha ta`lim tizimoining ba`zi tarkibiy qismlari fynksiyasini kehgaytirishni ta`minlashga qaratilgan sifatli sodda, o`zgarishlardir.)

6. Beshinchi raqamli innovatsiyalar ta`lim tizimining yangi avlodini yaratishni nazarda tutadi (tizimning barcha yoki ko`pchilik dastlabki xusiyatlarini o`zgartirish).

7. Oltinchi raqamli innovatsiyalarni amalgam oshirish orqali "yangi turdagi" ta`lim tizimi yaratiladi. Bunda tizim hosil qiluvchi tamoyil saqlangan holda, tizimning funksional xusisiyatlari o`zgaradi.

8. Yettinchi raqamli innovatsiyalar ta`lim tizimini tubdan o`zgartirishga qaratilgan. Bunda ta`lim tizimining asosiy funksional tamoyili o`zgaradi va shu tarzda yangi pedagogic tizim hosil bo`ladi.

Pedagogic innovatsiyalarning bunday xilma-xilligi boshqaruv jarayonida ularni aniq mezonlar asosida tanlab olishni taqazo etadi. Pedagogik innovatsiyalarni baholashning umumiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) baholanayotgan yangilikning dolzarbligi;

2) yangilikning ta`lim muassasasi rivojining umumiy g`oyasiga mosligi;

3) yangilik kiritishning natijaviyligi;

4) g`oyaning innobatsion salohiyati;

5) g`oyaning metodik ishlanganligi;

6) yangilik o`zlashtirilayotgan muassasaning salohiyat darajasi;

7) yangilikka munosabati bo`yicha turli guruhdagi o`qituvchilarning qiziqishlari darajasi;

8) o`zlashtirish uchun zarur vaqt;

9) yangi g`oyani o`zlashtirish uchun sarflanadigan moliyaviy va moddiy-texnik ta`minot;

10) tashkiliy shart-sharoitlar;

11) Me`yoriy-huquqiy ta`minlanganlik;

12) pedagogika nazariyasi va amaliyotining yutuqlariga mosligi.

Pedagogik innovatsiyalarni yuqorida bayon etib o`tilgan tasniflariga asoslangan holda, B.X.Xodjaev va Sh.Zfarovlartacnifi bo`yicha pedagogic innovatsiyalarning quyidagi umumlashgan tizimini hosil qilish mumkin:

**1.** Ishlab chiqarish munosabatlarining chuqurlashuvi bilan bog`liqlikda innovatsiyalarni quyidagi turlarda qjratib ko`rsatish mumkin:

1) modifitsiyalashgan innovatsiyalar. Masalan, "Elektron guruh jurnallari", "electron dekanat";

2) tuzatish, kirituvchi innovatsiyalar. Masalan, "yangi tarixdagi reyting Nizomi";

3) o`zgartirish kirituvchi innovatsiyalar;

4) integrallashgan innovatsiyalar. Masalan, "shaxsga yo`naltirilgan masofaviy ta`lim texnalogiyalari";

2. Ta`lim jarayoning tarkibiy qismlariga munosabatlariga ko`ra pedagogic innovatsiyalarni quyiodagi guruxlarga bo`lish mumkin:

1) ta`lim maqsadi va vazifalari bilan bog`liq pedagogic innovatsiyalar. Masalan, "identiv o`quv maqsadlarini o`quv vazifalariga aylantirish";

2) ta`lim va tarbiya mazmuni bilan boliq innobatsiyalar. Masalan, "ta`lim mazmunini integrasiyalash va differensiyalashtirish", "axborotlashtirsh va prognozlash";

3) ta'limning shakl , metod, vosita va texnologiyalari bilan bog'liq inovatsiyalar. Masalan, noananaviy dars shakllari, interfaol metodlar , multimidiya vositalari , ta'limining samarali texnologiyalari ( modulli ta'lim texnalogiyalari, moddiy-insonparvarlik yondashuv texnalogiyalari);

4) ta`lim olganliklar tashxis etish bilan bog`liq innovatsiyalar. Masalan, o`quv portfoliolari;

3. Ta`lim ssub`ektlarining shaxs shakllanishiga munosabatiga ko`ra pedagogic innovatsiyalar quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1) pedagog va o`qituvchilarni ma`lum bir qobiliyatlarini rivojlantirishga doir innovatsiyalar. Masalan, birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatnirivojlantirish:

2) pedagog va o`quvchilarning BKM, faoliyat usullari, kompetentligini rivojlantirishga doir innovatsiyalar.

4. Pedagogik qo`llanilish sohasiga ko`ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

1) o`quv jarayonida qo`llaniladigan pedagogik innovatsiyalar. Masalan, ta`limning axborot texnalogiyalari;

2) oquv kursida qo`llaniladigan pedagogik innovatsiyalar. Masalan, electron xarita;

3) ta`lim sohasida qo`llaniladigan pedagogik innovatsiyalar. Masalan, ta`limni demakratlashtirish;

4) ta`limni boshqarish sohasida qo`llaniladigan innovatsiyalar. Masalan, ta`limning davlat boshqaruvidan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o`tilishi.

5. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining o`zaro xarakat turiga ko`ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1) jamoada o`qitishga doir innovatsiyalar;

2) guruhli o`qitishga doir innovatsiyalar;

3) t`yutorlik;

4) fatsilitatorlik;

5) repetitorlik.

6. Funksional imkoniyatlariga ko`ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

1) shart-sharoit bilan bog`liq innovatsiyalar (ta`limiy muhitni uzgartirishni ta`minlaydi, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va boshqalar);

2) mahculot ko`rinishidagi innovatsiyalar (pedagogik vositalar, loyihalar, texnalogiyalar).

3) boshqaruvga doir yangiliklar kiritish.

7. Amalga oshirish usullariga ko`ra pedagogik innobatsiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

4) rejali pedagogik innovatsiyalar;

5) tizimli pedagigik innovatsiyalar;

6) davriy pedagogik innovatsiyalar;

7) stixiyali pedagogik innovatsiyalar;

8) tasodifiy pedagogik innovatsiyalar;

9) o`z-o`zidan yuzaga keluvchi pedagogik innovatsiyalar.

8. Makonga yo`nalganligiga ko`ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

1) alohida pedagogik faoliyatiga doir pedagogik innovatsiyalar;

2) pedagoklarning metodik birlashmasiga doir pedagogik innovatsiyalar;

3) alohida ta`lim muassasasi faoliyatiga doir innovatsiyalar.

4) tuman, shahar, biloyat, republika miqiyosidagi pedagogik innovatsiyalar;

5) xalqaro miqyosdagi pedagogik innovatsiyalar.

9. Ijtimoiy – pedagogik ahamiyatiga ko`ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

1) alohida ta`lim muassasalariga doir pqdagogik innovatsiyalar;

2) aniq kasbiy-tipologik guruh pedagoglariga xos pedagogic innovatsiyalar.

10. Novatorlik tadbirlari ko`lamiga ko`ra pedagogik innovatsiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

1) lokal;

2) ommaviy;

3) global.

D.Yunusova esa, ta`lim-tarbiya jarayonini texnalogik jarayon sifatida qarab, joriy etiladigan yangiliklarni bu jarayonning asosiy komponenylari (ta`lim maqsadi, ta`lim mazmuni, o`qitish metodi, o`qitish vositasi, ta`lim natijasi) asosida guruhlashni tashkil etgan:

1) ta`lim maqsadi bilan bog`liq pedagogik innovatsiyalar: modernizatsiyalashgan ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi (kasbga yo`naltirish, to`ldirish, insonparbarlashtirish, tabaqalashtirish, intigrallash, indiviudallashtirish va boshqa maqsadlarga ko`ra);

2) ta`lim mazmuni bilan bog`liq pedagogik innovatsiyalar: miqiyosiga ko`ra – yzluksiz ta`limda, aloxida ta`lim turida, ayrim fanda, bobda, mavzuda, mavzu materialioning ayrim qismida; darajasiga ko`ra- takomillashtirish, tubdan o`zlashtirish, o`zidan oldingisiga nisbatan- yangi dastur, dasturni takomillashtiruvchi, o`quv materialini to`ldiruvchi; paydo bo`lishiga ko`ra – me`yoriy hujjatlar o`zgarishi asosida rejali, oldindan o`ylangan, ichki va tashqi;

3) o`qitish metodi bilan bog`liq pedagogic innovatsiyalar: miqiyosiga ko`ra – uzliksiz ta`limda, alohida ta`lim turida, ayrim fandan, bobda, mavzuda, o`quv mashg`uloti shakli va turida; darajasiga ko`ra – takomillashtirish, ko`rinishini o`zgartirish, ma`lum uslubiyot elementlarini yangicha talqinda ishlab chiqarish; o`zidan oldingisiga nisbatan – yangi, takomillashtiruvchi, o`rnini almashtiruvch, to`ldiruvchi, retro; paydo bo`lishiga ko`ra – rejali, oldindan o`ylangan, tasodifiy, yangi talablar asosida, ichki va tashqi;

4) o`qitish vositasi bilan bog`liq pedagogik innovatsiyalar: miqiyosiga ko`ra – ommaviy, yakka, kopleks, tizmli, uzluksiz ta`limda, alohida ta`lim turida, ayrim fanda, o`quv materiallarining ayrim qismida, o`quv mashg`uloti shakli, turi, ayrim bosqichda; o`zidan olidgisiga nisbatan – yangi texnika, texnalogiya, eskikini almashtiruvchi, o`rnini almashtiruvchi, retro; darajasiga ko`ra – modernizatsiyalashgan, ma`lum vosita elementlari yangicha talqinda ishlab chiqilgan, tubdan o`zgartirilgan; paydo bo`lishiga ko`ra – rejali, oldindan o`ylangan, tasodifiy ichki, tashqi texnika rivoji ta`sirida;

5) ta`lim natijasi bilan bog`liq pedagogik innovatsoiyalar: o`qituvchi faoliyatida – novator o`qituvchi; o`quvchi faoliyatida – mustaqil; fikrlovchi aniq maqsadga intiluvchi, ta`lim jarayoning faol sub`yekti.

Pedagogik innovatsoyalarga doir qator tasniflarini o`rganish asosida stajyor – tadqiqodchi – izlanuvchi I.R.Aljanova ta`lim tizimidagi innovatsiyalar:

- maqsad, mazmun, metod va texhalogiya, jta`limni tashkil etish shakli, boshqaruv tizimi;
- pedagogik faoliyat va o`quv-bilish jarayonini tashkil etish uslubi;
- nazorat va ta`lim olganlik darajasini baholash tizimi;
- ta`limni moliyalashtirish tizimi;
- o`quv-metodik ta`limot;
- tarbiyaviy ishlar tizimi;
- o`quv reja va o`quv dasturlari;
- professor-o`qituvchi va talaba, talim beruvchi vat a`lim oluvchilar faoliyatiga o`zgartirishlar bilan bog`liq ravishda yuzaga kelmoqda, degan g`oyani ilgari surgan.

Shuningdek, tadqiqotchilikning fikricha, pedagogic innovatsiyalar o`z navbatida ta`lim jarayonini tashkil etish parametrlarini o`zgarishiga olib kelmoqda. Birinchidan, zamonaviy ta`lim doimiy ravishda fan va texnalogiya rivoji bilan bog`liqlikda ta`lim maqsadi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qilayotgan bo`lsa, ikkinchidan, ta`lim muasasalari variativligining qiyosiy modillarining ko`rsatkichlari ham murakkablashib bormoqda. Ana shu asosdan kelib chiqqan xolda I. Al`djonova ta`imdagi innavatsiyalarning ikki xil xususiyati (tashqi va didaktik) ga ko`ra tasniflanishni lozim deb topgan:

Tashqi (formal) xususitatlariga innovatsiyalarning turlari; ta`lim tizimi; egannanayotgan daraja; OTM ga qabul qilish tartibi; ta`lim olish tili; o`quv jarayoni jadvali; o`quv mashg`ulotlari jadvali; tarbiyaviy ishlarning shakli; mashg`ulotlarni tashkiletilish tartibi.

Didaktik xususiyatlarga innovatsiyalarning turlari: maqsadlar taksonomiyasi; ta`lim mazmuni; didaktik konsipsiyalari; o`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyati; ta`lim takomillari; ta`lim metodlari,

metodika va texnalogiya; ta`limni tashkil etish shakllari; ta`lim olganlik ni tashxis etish; ta`lim natijalari.

Umuman olganda, hozirgi kunda pedagogic innovatsiyalar xilma-xil ko`rinishda namoyon bo`lib bormoqda. Pedagogic innovatsiyalarning xilma-xil turlaridan keng foydalanish ta`lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

R.Sh. Axliddinov, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, I.Majidov, S. Turg`unov, N,Erkaboeva, N,Mamadovlarning fikriga ko`ra, innovatsion jarayonlar to`planib, qaror toppish, faol shakllantirish, transformatsiyalobchi kabi rivojlanish shakllarini hosilqiladi. Mazkur jarayonlar davomida ta`lim tizimlarining innovatsion potensiali; ularning o`z o`zidan rivojlanish qabolyati, shaxsning o`zini-o`zi rivojlantirishi uchun xilma-xil madaniy-ma`rifiy muhit va sharoitlar, xamjamiyatlardagi ta`lim institytsiyalari turlarining xilma-xiligi, xamjamiyatlarining xilma-xil va rivojlangan jamoasiga aloqalari shakllanadi.

"Innovatsiya" tushunchasi doimo bir xil ma`noda tariflanmaydi, ko`p xollarda u "yangilik kiritish" tushunchasi sifatida ko`rib chiqiladi, innovatsion jarayon" tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o`zlashtirish hamda ta`lim muassasasi amaliyotida samarali qo`llashni ifodalaydi. Innovatsion jarayonning tarkibiy tuzilishini muammolar; yangilanishga extiyoj sub`yektlari; maqsaad; vazifalar; mazmun; metodlar; natija tashkil etadi. R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi.

Birinchi blok – pedagogika yangini yaratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogic yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me`yorlari, uni o`zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an`ana va navatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichi kabilar kiradi.

Ikkinchi blok-yangini idrok qilish, o zlashtirish va baholash bloki; pedagogic hamjamiyatlar, yangini yaratish va uni baholash jarayoning rang-baranglogi, pedagogikadagi konservatorlik va navotorlik, innovatsiya muhiti, pedagogic jamiyatning yangini idrok etish va navotorlik, innovotsiya muhiti, pedagogic jamiyatning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok – yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya`ni yangini tatbiq etish, foydalanish, keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

### 1.1. “Innovatsion faoliyat” tushunchasi, uning mohiyati va o`rganilganlik darajasi.

“Innovatsiya”, “yangilik kiritish”, “Innovatsion jarayon” larni tahlil qilish orqali “innovatsion faoliyat” tushunchasini quyidagicha izohlash imkoniyati yuzaga kelgi;

Innovatsion faoliyat – pedagogic jamoani harakatga keltiruvchi, olg`a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an`anaviy me`yorlarning mos kelmasligi, yoxyd amaliyotning yangi qo`llanilayotgan me`yorining mavjud me`yor bilan to`qnashuvchi natijasida bujudga keluvchi majmuali muammolarning yechimiga qaratilgan faoliyatdir.

“Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an`anaviy me`yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me`yorining mavjud me`yor bilan toqnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyatdir”, - deb takidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo`lib, ijtimoiy –madaniy ob`ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub`yektlarning harakat tizimi bo`lib, u ma`lum doiradagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo`lishdir. O`qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o`quv jarayonini samarali tashkil etishdir.

Innovatsion faoliyat uzliksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo`lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O`qituvchi innovatsion faoliyatining xususiyatlarini o`rganib chiqqan pedagogic olimlar fikrlariga tayangan halda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogic tadqiqot metodlarini egallash;

- mualliflar konsepsiyalarini yaratish qobilyati;
- tajriba-sinov ishlarini rivijlantirish va amalgam oshira olish;
- o`zidan boshqa tadqiqotchi- pedagoglar tajribalarini qo`llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordan ko`rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o`z sharoitiga moslashtirib boorish.

M.Jumaniyozovaning fikricha, o`qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o`sibborishi natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o`z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonini ham qamrab oladi.

Innovatsion faoliyat o`qituvchining hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo`lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurash demakdir.

## 1.2. Innovatsion faoliyatni tashkil qilish zaruriyati va omillari

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o`rganib chiqqan olimlardan biri B.A.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko`rsatib o`tadi: "Innovatsion faoliyatning tuzilishi – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnalogik va metadologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, kuomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo`lishi mumkin".

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar tom ma`noda ta`lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta`lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish bosqichda amalgam oshiriladi:

1) muammoni tahlilasosida aniqlash;
2) mo`ljallanayotgan ta`lim tizimini loyihalash;
3) o`zgarishlar va yangiliklarni rivojlantirish;
4) o`zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad – o`qituvchilarni yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o`z ustida ishlash ko`nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogic texnalogiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, darc va darcdan tashqari mashg`ulotlarni o`tkazish malakasini takomillashtirishdan iboratdir.

Innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib boorish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi yexnalogik jarayon yoki takomillashtirilgan maxsulot yaratish bo`lib, uning progmatik xususiyatishundaki, u g`oyalar maydonida ham va alohida bir sub`yektni amalgam oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo`ladigan haldagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

Innovatsion faoliyaning asl mazmuni amalgam yangi texnologiyaning shakllanishi bo`lib, uning natijasi innovatsion sifatiga yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani-texnalogiyaga aylantirishga yo`naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantig`I bo`yicha

tug`ilmaydi, balki rivojlanish jamiyatining modifikatsiyalariqo`llab – quvvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo`ladi.

“Innovatsion faoliyat – o`quvchining o`z faoliyatidan qoniqmasligigan kelib chiqadi. U o`quvchi tomonidan u yoki bu pedagogikvazifani hal qilishda qandaydir to`siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi”. Innovatsion faoliyat yangi g`oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogic innovatsiya ta`lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala echimiga yo`naltirilganligi sababli o`qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi.

O`qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A.Nikol`skayaning fikricha, faoliyatni yangilash uch bosqichda, yangi tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalgam oshiriladi.

O`quvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator to`siqlar mavjud. Bularning birinchisi p`quvchining o`zi ko`nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi hamda qiyinligi, yani o`quvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi, bo`lsa, yana bir sabab rangi va noma`lum narsalar har doim odamlarda uchinchi va xavfsirashni keltirib chiqarishidadir.

A.M.Xon o`qituvchilarda innovaysion faoliyatni shakllantirishda uchraydigan psixologik to`siqlarning iki turga ajratadi: kognitib psixologik to`siqlar va mumtazam paydo bo`ladigan to`siqlar. Kognitib psixologik to`siqlar yangilik haqidagi bilimlarning yetishmasligi, yangilikni his qilmaslik va nofaol xatti-harakatlar hisoblansa, muntazam psixologik to`siqlar yangilikga nisbatan ishonchsizlik, rahbariyatga ishonmaslik, tashabbuskorlikni qo`llab-quvvatlamaslik va odatda yagilikni kirituvchilarga qarshi kurashish kabi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi:

1. Yagilikni pedagogic faoliyatda qo`llashdan oldingi davrdagi o`qituvchi faoliyatini tahlil qilish,

2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.

3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritib bo`lingandan kiyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish .

Zamon shiddat bilan o`zgatib borai ekan, ta`lim sohasi ham u bilan barobar o`zgaradi va o`qituvchidan o`z faoliyatini o`zgartirishni talab etadi. Bugun o`qituvchining asosiy vazifasi nafaqat ta`lim berishgina emas balki boshqaruvchilardan iborat bo`lib, u ta`lim jarayonini to`g`ri tashkil qilish va boshqaruvchilikdan iborat bo`lib, u ta`lim jarayonini to`g`ri tashkil qilish va boshqarishi talab etilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "Ta`lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to`ldirish ta`minlanadi", - deb takidlab o`tiladi. Raqobotga asoslangan mehnat muhitini vujudga keltirishning saosiy omillaridan biri o`qituvchilarni innovatsion faoliyatda yo`naltirish va bu faoliyatga tayyorlash orqali ta`lim jarayoniga ilg`or pedagogic texnalogiyalarni tatbiq etish, o`quvchilarga bilim berishni kafolatlash hamda ta`lim samaradorligiga erishishdan iboratdir.

O`qituvchi ennovatsion faoliyatini tahlil qilib, yning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

Birinchi bosqich – tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko`chiriladi.

Ikkinchi bosqich – mavjud tizimda ayrim yangi moslamalar metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich – yangi g`oyani amalgam oshirish mazmuni, merodlari va shakli to`liq ishlab chiqiladi.

To`rtinchi bosqich – o`qituvchi o`qitish va tarbiyalashning oz konsipsiyasi va metodikasini ishlab chiqadi.

O`qituvchi innovatsion faoliyatining shakillanishidagi birinchi bosqichda quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- pedagogik faoliyatda ijodiy yo`nalishni shakllantirib borish;
- pedagogik jarayonda syb`yekt xamkorligini yo`lga qo`yish;
- pedagogik kasbini rivojlantirish va bunga qiziqishni orttirib borish;

- keng qiziqish doirasini shakllantirish, pedagogik myloqotda ochiqlikni ta`minlash;

- “men-g`oyalar” ijodiy fikrlash yo`nalishini rivojlantirib borish;

- Pedagogik vazifalarni hal etishga ijodkorlik bilan yondashuv, tahlil qilish malakalarini rivojlantirib boorish;

- ijodiy ishlash texnalogiyasini shakllantirish.

Bu jarayonda shaxsiyatni o`stirish treningi, muammoli o`qitish texnalogiyasi, faol ta`lim metodikasidan foydalanish va yangilik kiritish jarayoni bilan tanishtirib boorish lozim. Birinchi bosqichning asosiy mazmunini umumiy psixologik-pedagogik bilimlarni egallash, o`z faoliyatini tahlil qilish ko`nikma va malakalarini shakllantirish tashkil etadi.

O`qituvchilarga innovatsion faoliyatni shakllantirishning ikkinchi bosqichida quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- pedagogic faoliyatni kreativ rivojlantirish;
- ma`naviy –madaniy bilimlarni oshirish;
- pedagogik yangiliklarni o`zlashtirish ehtiyojini shakllantirish;
- pedagogik refleksiyani rivojlantirish;
- yangi turdagi faoliyat sifatida innovatsion axborot fondini shakllantirish;

Pedagogik kolleji o`quvchilarini mazkur vazifalarni bajarishga tayyorlashda muammoli o`qitish, o`zini anglash bo`yicha treninglar tashkil etish, o`qitishning rivojlantiruvchi texnalogiyalari bilan tanishtirib borish, o`qitishning shaxsga yo`naltirilgan texnalogiyalaridan foydalanish, mualliflar kontsepsiyalarini izohlash, o`qitish metodlarini tanlashga o`rgatish, pedagogic texnika va tehnologiya treninglarini, mustaqil ishlardan faydalanish mumkin.

Innovatsion faoliyat shakllanishining uchinchi va to`rtinchi bosqichlarida quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- pedagogik faoliyat va bir butun holatda pedagogic muloqot texnalogiyasini zamonaviylashtirish;
- innovatsion faoliyat texnalogiyasini o`zlashtirib olish.

Bunda mualliflik dasturlarini tuzish metodikasini bilish, kiritilayotgan yangiliklarni tajriba-sinov bosqichlariga ajratib, uning rejasini ishlab chiqish, yangilikni taxlil etish, pedagogic tajriba-sinov ishlari natijalarini baholash talab etiladi. Bu bosqichni shakllantirishda, asosan, quyidagi texnalogiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq: Tashkiliy-faoliyatli o`yinlar, innovatsion refleksli amaliyot, mualliflik konsepsiyalsrini o`yinlar, innovatsion reflekli amaliyot, mualliflik konsepsiyalarini o`zgarish, mualliflik dasturlari, ishlanmalarini yaratish, innovatsion tipdagi o`quv muassasalarida amaliyot, mualliflik konsepsiyslarini o`rganish, mualliflik dasturlari, ishlanmalarini yaratish, innovatsion tipdagi o`quv mussasalarida amaliyot o`tkazish, pedagogic mahoratni mustaqil oshirish.

Bo`lajak tarbiyachilarni innobatsion faoliyatga tayyarlash haqida gapirganda, bu faoliyatning ilmiy-metodik o`ziga xosligi haqidagi savol paydo bo`ladi. Bu faoliyatning imkoniyatlari ta`lim tizimi qo`lamida innovatsion g`oyalar, loyihalar, texnalogiyalarni joriy qilishda va shaxsni rivojlantirishda namoyon bo`ladi. Bu faoliyat imkoniyatlari o`zida quyidagilarni jamlaydi:

- bo`lajak tarbiyachilarni yangilikni qo`llashga tayyorligi;
- bo`lajak tarbiyachining pedagogic yangilikni o`lashtita olishi;
- bo`lajak tarbiyachining novatorlik qobilyanining rivojlanganligi;
- bo`lajak tarbiyachida kommunikativ qobilyatlarining rivojlanganligi;
- bo`lajak tarbiyachining ijodkorligi.

Bo`lajak tarbiyachi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri uning ijodiy faolligi, ijodkorligi hisoblanadi. Bo`lajak tarbiyachidan yangiliklarini o`zlashtirib boorish bilan birga ularni o`z faoliyatida qo`llay olishi va pedagogik jamoa o`rtasida targ`ib eta olishi talab etiladi.

Innovatsion faoliyat pedagogic mahoratning yuqori bosqichi bo`lib, bunda jamoa a`zolari bir- birlarini qo`llab –quvvatlashi, kiritilatotgan yangilikning ta`lim muassasasida o`z o`rnini topishga ishonch bilan qarash, qiynchiliklarga duch kelganda ruhan tushkunlikka tushmasdan, o`z xatolarini ko`ra bilish va ularni tuzatishga harakat qilish talab etiladi. O`z-o`zini

tarbiyalab borish, o`z ustida timay ishlashga harakat qilish innovatsion faoliyatining asosiy sharti hisoblanadi.

Bo`lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyati tayyorlashning natijasi quyidagilarga ko`runadi:

- bajarilishi lozim bo`gan ishning maqsadini aniqlay olishadi;
- nostandart vaziyatlarini taxlil etib, tezkor xulosalar chiqara bilishadi;
- o`quv-tadqiqot jarayoni bilan bog`liq masalalarini yechish usullarini egallaganligida;
- muamolarni hal etshning maqbul vosita va usullarini izlab toppish, kuzatish va tajriba natijalarini tizimlashtirishda;
- o`z ustida mustaqil ishlashni rejalashtira olishida;
- o`z ishi natijasini nazorat va tahlilqila olishida;
- yangi axborot texnalogiyalaridan foydalanish malakasining mavjudligida;
- yangi g`oyalari izlab topa olishi, pedagogic masalalarni algoritmlashtirish malakasiga egaligida.

# II BOB. Pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotidan foydalanish yo`llari.

## 2.1. Trening mashg`ulotlarini tashkil etishning amaliy-texnalogik jihaylari.

Trening – bu maqsaga yo`naltirilgan ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan qisqa muddatli o`qitish shakli. Ta`lim sohasidagi treningning o`ziga xosliklari quyidagilarda yorqin namoyon bo`ladi:

1. Maqsadga yo`nalganlik. Treningning asosiy maqsadi – qisqa muddatda uch-yigirma besh talabadan iborat guruhni oily ta`lim myassasasi sharoitiga moslashtirish maqsadida aniq ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish.

2. Trening o`tkazish vaqtining chegaralanganligi. Treningning o`tkazishi uchun aniq aniq muddat belgilanib olinishi va shu muggatda kutiladigan natijalarga erishilishi zaruz.

3. Ishtirokchilar sonining cheklanganligi. Trening o`tkazish uchun eng qulayi 25 talabadan oshmagan guruhdir.

4. Shakillantirilishi lozim bo`lgan ko`nikmalar tavsifi. Mazkur o`ziga xoslik turlicha namoyon bo`lishi mumkin: formal mopslashuvga o`rgatishdan, didaktik moslashuvga qadar.

Treningning asosiy maqsadi:

- yangi bilim va konikmalarning hamda ularni amaliyotda qo`llay olishni egallash opqali bo`lajak pedagoglarning kasbiy layoqatini oshirish;

- ishtirokchilarda yangi bilim va ko`nikmalarni jadal tarzda o`zlashtirish istagini xosil qilish xamda ta`limning yangi shakl, metod va vositalarini idrok etishga tayyorlash;

-pidagog faoliyatida ta`lim jarayonini tashkil etishga o`zgartirishlar kiritishni amalga oshirish va boshqalar.

Treningni muvaffaqiyatli o`tkazish uch quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish lozim:

1) treningning maqsadi va vazifalari xaqida aniq tasavvurlarni shakillantirish;
2) qisqa muddat ichida talabalarni treningda ishtirok etishga o`rgatish;
3) treningning talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan muvofiqligini ta'minlash ;
4) treningni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun interfaol metodlardanfoydalanish.

Treningni tashil etishda quyidagi muxim jixatlarga e'tibor qaratish zarur:

1 Trening utkaziladigan xona.Xar bir ishtirokchi xonada uzini xis etishi uchun lozimn bo'lgan barcha sharoitlarning bulishi treningning samarasini ta`minlovchi omillardan biridir.Shuni xisobga olgan xolda trening mashg'ulotlari utkaziladigan joy shinam,keng,erkin xarakatlanishga muljallangan,kerakli anjomlar bilan jixozlangan bo`lishi tavsiya etiladi. Xonaning bir chekkasida dumaloq shakilda quyilgan stullar,bir chekkasida yumshoq mebel o`rindiqlari,2-3 dona stol,akvarium, devorda 1-2dona manzarali gullar bo`lishi lozim.

Bundan tashqari mashg`ulot jarayonida foydalanish uchun magnitofon, televezor,proektor,kompyuter jixozlari bo`lishi kerak.Xonada ishtirokchilarning orasiga tusiq bo`ladigan ortiqcha jixozlar bo`lmasligi tavsiya etiladi.

2. Trening utkazish jarayonida gurux azolari soni 8-10 talabadan 20-25 gacha bo`lishi ma`qul variant xisoblanadi.Agarda guruxda ishtirokchilar soni 25 kishidan ortib ketsa, dastur va mashqlar ishtirokchilarni bir necha guruhlarga bo`lganhalda o`tkaziladi.

3. Trening mashg`ulotlarining davomiyligi quyidagi bo`lishi amalgam muvofiq;

1) Hafta davomida 4-5 kun, soat (30 minut tanaffus beriladi). Bu eng samarali natija beradi;

2) xaftasiga 2-3 kun, har kuni 4-5 soat. Samarali natija beradi; haftasiga 1 kun, 3-4 soatdan. Kamroq samara berishi kutiladi.

Treningni birinchi kuni ishtirokchilarning joylashuvi bilan boshlanadi.

Trenering o`zi stullarni doira shaklida qo`yishga boshlaydi, guruh esa unga yordam beradi. Shu holatning o`zidayoq ishtirokchilar haqida dastlabki ma`lumotni olish mumkin: kimdir faol yordam beradi – stollarni chrtga suradi, bir yo`la bir nechta stol ko`taradi, tez-tez harakat qiladi, kimdir boshqalarning xarakatini shunchaki kuzatib turaveradi, ba`zilar o`zini go`yoki nima bilandir banddek ko`rsatib turaveradi.

Trening guruhning motivasiyasini aniqlash uchun guruhga qabo`l qilinadigan xar bir ishtirokchi bilan individual suhbat olib borishi lozim. Suhbatda asosan quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi.

1. Terningdan nima kutyapsiz?

2. Sizda, oilaviy (ota-onangiz, turmush o`rtog`ingiz, farzandingiz yoki boshqalar bilan) yoki o`qishda (o`qituvchilar yoki kursdoshlaringiz bilan) muloqot borasida myammo bormi? Treningda ishtirok etishga sizni nima majbur qilayapti?

Trening jarayonida albatta o`tkazilishi kerak bo`lgan birinchi bosqich – guruhiy meyorlarni ishlab chiqish bosqichidir. Guruhiy meyyorlarni ishlab chiqish jarayonida ishtikokchilar bilan bu meyorlarga albatta rioya qilish kerakligi to`g`risida kelishish va har bir a`zoning roziligini olish kerak. Bu qoidalarga rioya etish treningning maqsadiga erishish va qulay psixologik iqlimning yaratilishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Trening jarayonida guruhda ishlarni tashkil etishga doir meyorlar (tamoyillar) quyidagilardan ibotat bo`lishi mumkin.

1. intizomga qatiy rioya qilish. Bunda har bir guruh a`zosi mashg`ulotga o`z vaqtida kelishi, o`z vaqtida ketishi zarurligini xis etishi lozim va bunga qat`iy amal qilish kerak. Chunki mashg`ulotga kechikib kelishi ba`zi bir ishtirokchilarning jahlini chiqarishi, g`ashiga tegishi mashg`ulotlarning to`xtab qolishi va noroziliklarga olib kelishi mumkin.

2. “Maxfiylik”. Semiharda bayon etilgan kimningdir, aniqrog`i biror-bir guruh a`zosining hayotiga oid xissiyot, fikr axborotlar seminar doirasidan chrtga chiqmasligi lozim.

3. “Shu erga va hozir”. Guruhdagi muomala-munosabat mashg`ulot jarayoniga bevosita aloqador, ya`ni hozirgi zamonga bog`liq bo`lishi zarur. Hattoki ishtirokchilardan birortasi o`tganzamondagi voqeani hikoya qilatotganda ham, uning shu yerda va ayni paytda nimani xis qilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir ishtirokchi barcha muammolarini ynitib, o`zini faqat “shu yerda va hozir” holatida his qilishi lozim.

4. fikrni birinchi shaxs tomonidan bayon etish. Bunda doimo mulohazalar “Menimcha…”, “Mening fikrimcha…”, “Mening o`ylashimcha…” kabilarida bayon etilishi maqsadga muvofiqligi o`qtirilishi kerak.

5. Bir – birini iloji boricha ismi bilan chaqirish. Bu ishtirokchilarning o`zaro teng munosabatlarini ta`minlaydi.

6. “Uagona mikrafon” meyori. Bir ishtirokchi so`zlayotganda, bashqalar unga diqqat bilan quloq solishi va gapini bo`lmasligi, bir-birining shaxsini xurmat qilishlari lozim. Kimdir gapirayotganida boshqa birovning unga quloq solmasligi so`zlovchining shaxsiyatiga tegishi va u keyingi baxslarga o`z munosabatini bildirishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Bu esa terning samarasiga salbiy ta`sir ko`rsatishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

7. “Semenarning boshidan oxirigacha qatnashish”. Bu ishtirokchilarda ma`suliyatni bujudga keltirish uchun zarur bo`lgan tamoyildir.

8. “Ixtiyoriylik”, Semenarda o`z mulohazalarini bayon qilish, munozaralarga, o`yin va mashqlarda ishtirok etishda ehtiyoriylikni joriy rtishi mumkin.

9. “Vaqtni tejash - sarishtalik”. Guruh ishtirokchilari trening mashg`ulotlari vaqtida gaplarini imkon qadar qisqa, lunda ifodalashi, mavzu doirasidan chetga chiqib ketmasligi lozim.

10. “Shaxsni baholamaslik”. Gar bir ishtirokchi o`z fikr mulohazalarini, hissiyotlarini bayon qilishi mumkin, biroq bunda boshlovchi va qolgan ishtirokchilar hikoyadagi vaziyatnigina muhokama qilishlari kerak va so`zlovchining o`sha paytdagi xulq- atvori, xatti-harakatini baholashdan qochishlari kerak. Masalan, “usha vaqtda siz jahilga berilmasligingiz yoki bunday demasligingiz kerak edi” kabi. Buning o`rniga bunaqa vaziyatda men bunday qilardim kabi variantlarda so`zlashish yoki fikrini bildirish so`raladi.

11. Ishtirokchilar bir-birlariga do`stona munosabatda bo`lishi, bir-birlarining hissiyotlarini xurmat qilishi kerak (Masalan. Ketishi kerak bo`lib qolsa albatta boshlovchini ogohlantirish yoki aksincha).

Bundan tashqari treher tomonidan quyidagilar alohida takidlab o`tilishi shart.

1. Birovning fikrini umumiy noto`g`ri deb hisoblagan yoki unga qo`shilmagan taqdirda ham uni to`xtatib qo`yish yoki ustidan kulishda hech kimning haqqi yo`q.

2. Ishtirokchilar bir-birini masxaralashi yoki g`ururiga tegadigan gaplar aytishi mumkin emas.

3. Ishtirokchilar ham, boshlovchi ham, agar savol uning shaxsiy hayotiga tegishli bo`lsa, javob bermaslik xuquqiga ega.

4. Boshlovchiga savollar va fikrlar anonym tarzda berilish imkoniyati yaratilishi shart. Lekin bu haddan tashqari chrgaradan chiqishimkonini bermasligi, ya`ni boshlovchining shaxsiyatiga tegish kabilar yo`l qo`yilmasligi ta`minlanishi kerak.

Meyo`rlarni mashg`ulot o`tkazishdan avvalroq katta qog`ozga yozib, xonaga osib qo`yish yoki guruh a`zalari bilan birgalikda “Fikriy xujum” ysuli orqali aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq.

Bu birinchi guruhiy kelishuv hisoblanadi. Bunda shu narsa muhimki, har bir kishining fikrini albatta erishish, nima uchun bu tamoyilga hayrixohligi yoki noroziligini izoxlashini so`zlash lozim. Tamoyillarni tasdiqlashni ovozga

qo`yish kerakmas. Agar kimdir guruhning fikricha norozi bo`ladigan bo`lsa, uni ko`ndirishga xarakat yoki guruh boshqa qarorga kelishi lozim bo`ladi.

Chunki uning fikrini inobatga olmaslik – gurihdagi psixologik iqlimga salbiy ta`sir etishi aniq. Ya`ni fikri inobatga olinmagan ishtirokchida norozilik hosil bo`ladi va bu uning treningdagi butun ishtiroki davomida mahsus holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari unda ruhiy tushkunlik, o`z-o`zini baxolashning pasayishi va h.k.lar ham paydo bo`lish ehtimolini tug`diradi.

Treningdagi ikkinchi bosqich – guruh a`zaligining bir-biriga murujaat rtish usulini sniqlab olishdan iborat bo`ldi. Bunda trener 4 xil variantni taklif etadi: “Sen”, “Siz”, “Ism”, “Familiya”. Odatda, o`zbek mintalitetida ismini aytib murojar etilishi kishilar orasida o`zaro yaqinlik hissini vujudga keltirishi sir emas. Garchi, ba`zi irodalarda ism-sharifi bilan murojaat etish rasman tan olingan bo`lsada, ism bilangina murujaat etish treningda ko`pchilik tomonidan tasdiqlansa, har qanday katta mansabda ishlaydigan ishtirokchini ham isni bilan chaqirish talab etiladi.

Treningdagi uchinchi bosqich – “Tanishuv” bosqichini turli hil usulda tashkil etish mumkin, lekin mohiyat bitta bo`ladi, ya`ni u bosqichning mohiyati quyidagicha: Har bir ishtirokchi o`zini bir yerda qanday nom bilan atashlarini istasa, shunday atashi mumkin. Shu o`rinda ylar muloqot jarayonida o`ziga yordan beradigan va xalaqit beradigan sifatlarni ham aytishi lozim. Yoki yilar quyidagi savolga javob tarzida ham o`zlarini tanishtirishlari mumkin: “Yaqinlaringiz sizni nima uchun qadrlashadi?”, “Boshqalardagi qanday xislatlarni qadrlaysiz?” va hakozo. Tanishuv bosqichida har bir ishtirokchi o`zidan oldingi ishtirokchining aytganlarini takrorlashi lozim.

Bu bosqichni ishtirokchilar shunchaki bir-birlarining ismini bilishlari bilan bog`liq bo`lgan rasmiyatchilik deb qabul qilmaslik kerak. Ishtirokchilarning tanishuv bosqichi – ularning o`tkazilayotgan mashg`ulotga va ayni paytdagi muhitga moslashish jarayoni bo`lib, ulardagi hayajon va ayni bartaraf etishning eng yaxshi yo`lidir.

Mashg`ulot avvalida trener o`zini auditoriyaga tanishtirib, qaysi tashkilot, muassasasidan ekanligini aytadi. Boshlovchi haqida ishtirokchilarda paydo bo`lgan ilk tassavvur keyingi ishlar natejasiga, trener va guruh a`zolari o`rtasidagi munosabatlar xarakteriga va albatta, mashg`ulotning yakoniga, samaradorligiga ham o`z ta`sirini o`tkazadi. Tanishuvda ishtirokchilar doira yoki boshqa shakllarda o`tirishlari mumkin.

Har qanday trening mashg`ulotlarini olib borishda samaradorlikka erishish uchun eng avvalo ishtirokchilar orasida samimiylik, ochiqlik. O`zaro ishonch muhitini yaratish lozim bo`ladi. Bular amalgam oshmasdan turib, treningdan ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi. Bunday muhitni yaratish esa boshlovchidan katta maxorat talab etish bilan bigalikda treningjarayonida qo`llaniladigan usullarga xam bog`liq bo`ladi. Bunday usullar sirasiga “ta`limning noan`anaviy usullari” deb nom olayotgan va bizning ta`lim sistemamizga keng kirib kelayotgan usullar kiradi. Ana shunday usullardan biri “ Aqliy xujum” deyladi. Bu shunday usulki, muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan xar bir ishtirokchi o’z fikrini bildirishi shart va trening xar bir javob variantlarini e`tirozsiz va e`tibor bilan qabul qilishi lozim.

Bunda muhumi bildirilayotgan fikrga baho berish emas, balki ularning hammasini qabul qilish va xar bir ishtirokchi aytayotgan fikrini doska yoki qog`ozga yozib borishdir. Aynan shu usuldan treninglarda juda ko`p foydalaniladi. CHunki bu usul ishtirokchilarning o`z mustaqil fikrlarini bildira olishining eng yaxshi yo`lidir. Bu usuldan trening boshida foydalanishga maqsadga muvofiq. Ayniqsa, guruh kayfiyatini bilish, ularning bilim darajasini aniqlab olish va treningdan nima kutayotganliklarini bilib olishda bu – aniq qulay usul hisoblanadi. Fikriy xujum natijasida olingan ma`lumotlar guruh bilan olib borilayotgan keyingi ishlar uchun yullanma bulishi mumkin.

Aqliy xujum usulining foydali tomonlari quyidagilardan nomoyon bo`ladi:

1) nozik va munozarali savollarni muhokama qilishda;

2) o`ziga ishonmaydigan ishtirokchilarni munozaraga tortish va ularni qiziqtirish uchun ( bu ishtirokchini albatta rag`bantlantirish shart )

3) qisqa vaqt moboynida ko`proq fikr yig`ish uchun bu usul juda ko’p keladi.

Fikriy xujum quydagi bosqichlardan iborat bo`lishi lozim:

1. Trener “ Aqliy xujum “ mavzusini taqtim qiladi.

2. Taqtim qilingan mavzu yuzasidan fikr, mulohaza va takliflarni bildirish uchun ishtirokchilarga imkon berish.

3. Bildirilgan barcha fikr, mulohazalar mahsus qog`oz yoki doskaga yozib boriladi.

4. Muhokama yakunida guruh turli fikrlilikdan yagona fikrga kelinadi.

Aqliy hujumning 3ta qoidasi bor.

1. Barcha fikrlarni e`tirozsizqabul qilish va xar bir ishtirokchiga bildirgan fikri uchun minnatdorchilik bildirish.

2. Fikrlarni yozib olayotgan birorta xam fikrni tashlab ketmaslik, ya`ni har bir ishtirokchi bildirgan fikrni albatta yozib boorish.

3. Bildirilgan fikrlarni yakunlash, bir qarorga kelish uchun har bir ishtirokchidan unung rozi yoki rozi emasligini syrash shart.

Demak “Aqliy hujum” ning samaradorligi uchun albatta ana shu qoidalarga rioya qilish lozim.

“Aqliy hujum”ning asosiy qoidasi – bildirilgan barcha g`oyalarni hech bir e`tiborsiz qabul qilish. Shu sababli boshlovchi ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikirlarni diqqat bilan tinglab borishi va yo`naltirib turishi lozim. Bu qoidaga amal qilmaslik guruh kayfiyatni tushirishi va o`zaro ishonch ruhini sindirishi mumkin.

Boshlovchi ishtirokchilar tomonidan bildirilayotgan taklif va fikrlarni yozib olayotganda e`tiborli bo`lishi va ulardan birortasini ham tushirib qoldirmasligi kerak. Chunki ba`zan ishtirokchi o`z uyatchanligini yengib, fikrini hayajon bilan bildiradi va o`zi bildirayotgan firk barchaning diqqatini toptadi va muhokama qilinayotgan fikrlar ichida eng yaxshisi bo`ladi, deb ishonadi. Agar unga ozgina etiborsizlik qilinsa, u buni “Menga e`tabor qilishmadi, demak mening fikrim ularni qiziqtirmaydi”, degan ma`noga

tushunishi mumkin va “ichimdan top”, “indamaslik” kasalliklariga chalinib qolishlari ham mumkin.

Bildirilgan barcha fikrlarni ma`lum bir guruhga va shaklga kiritish bosqichiga o`tayotganda boshlovchi albatta ishtirokchilardan uning fikriga rozi emasligini yoxud boshqacha tushunib qolmaganligini so`rashi kerak, agar norozilik yoki tushunmovchiliklar bo`lsa, slbatta aniqlik kiritish lozim bo`ladi.

Fikriy hujimning natijasi bu – turli xil g`oyalar, fikrlar, mulohazalar yig`ndisidir. Asosiysi esa – ishtirokchilarning faol ishlashi. Shuning uchun trening davomida fikriy hujum natijalari tez-tez murojat qilib turish kerakki, bunda ishtirokchilar o`zlatining faol harakatlari natijasida, ulardan keyinchalik ham foydalanayotganligini ko`rishlari kerak, bu esa ularda “Nima keragi bor edi, bu gaplarning?” kabi savollar tug`ilisining oldini oladi.

Hozirgi zamon ta`lim jarayonida keng qo`llanilayotgan noananaviy ta`lim usullaridan biri baxs- munozaradir. Bu usul trening mashg`ulotlarida xam yaxshi samara berishdi.

Baxs-munozara bosqichi. Munozarani katta guruxlarda utkazsa xam buladi,lekin u kichik guruxlarda utkazilsa kuproq foyda beradi.Muammoni guruxda muxokama qilish ishtirokchilarga nafaqat uzaro fakir almashish,balki muxokama etilayotgan mavzu xaqida aniq ma`lumotlar olish,uz xissiyotlari va nuqtai nazarlarini ifoda etish imkoniyatini xam berishi mumkin. Munozara boshlanishidan ishtirokchilarning muhokama qilinayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi, ularga o`z fikrini bayon qilish va boshqalarning fikrini eshitishga imkon beradi. Bundan tashqari, munozara davomida muammo yechimining turli yo`llari topiladi, guruhning birlashishiga va o`zaro mustahkamlanishiga olib keladi.

Treningda gurihiy munozara har bir ishtirokchining muayyan masalalariga oid tushunishga va qarashlarini aniqlab olish usuli sifatioda ishlatiladi. Misol uchun, ishtirokchilarning “Ta`limninginterfaol metodlari”, “Innovatsion texnalogiyalar”, “O`qitish jarayonini texnalogiyalashtirish”, “Innovatsion

tarbiya texnalogiyalari" va boshqa mavzulardagi fikrlarini bilish qiziqarlidir. Shunda muammo yechimlarini toppish ham osonlashadi.

Munozara jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo`lishi lozim.

1. Yo`naltirish bosqichi – bunda munozara mavzusi tanlanadi, maqsad aniqlanadi, ishtirokchilar tomonidan bildirilgan tushuncha, fikr, mulohazalar asosida shu uchun zarur bo`lgan axborat yig`iladi.

2. Vaqtni boshqarish bosqichi – bunda trener mavzuni e`lon qilish, ish shaklini tushuntirish va zaruriyatga qarab ishtirokchilarni fikrini yo`naltirib turish uchun vaqtni oldindan taqsimlashi lozim.

3. Baholash bosqichi – muhokama davomida barcha fikrlar eshitib bo`lgandan so`ng ularni tartib bilan asosli tarzda va hamkorlikda baholash juda muhumdir.

4. Tygallash bosqichi – bunda munozara yakunlari sarhisob qilinadi. Guruhiy munozarada trening guruhda ishonch muhitini yaratish uchun ma`suldir. Shuning uchun u bir paytning o`zida 2 ta rolni ham trener. Ham ishtirokchi rolini o`tashga burchlidir. Va oxirida trener yagona xylosani e`lon qiladi, ishtirokchilarga minnatdorchilik bildiradi.

## 2.2 Pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotlari o`tkazish metodikasi.

Bo`lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda trening mashg`ulotlariga alohida e`tabor qaratildi. Pedagogika kolleji o`quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash maqsadida "Bo`lajak tarbiyachilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish" mavzusida qisqa muddatli smenar-trening tashkil etildi.

2.2. 1-jadval

"Bo`lajak tarbiyachilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish mavzusidagi smenar-trening dasturi

| | Mavzu | Ajratilgan soat | | |
|---|---|---|---|---|
| | | nazariy | amaliy | jami |
| 1. | Pedagogik ijod nima? Tarbiyachining ijodkorligi va ijodiy sifatlari | 2 | 2 | 4 |
| 2. | Tarbiya jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashuvning asosiy omillari nimada? | 2 | 2 | 4 |
| 3. | Ixtiyoriy mavzu asosida ijodiy ish yaratish texnalogiyasi. | - | 4 | 4 |
| 4. | Axboriy matnlar bilan ishlash orqali ijodkorlikni pivojlantirish. | 2 | 2 | 4 |
| 5. | Bo`lajak tarbiyachilarning individual rivojlanish traektoriyasi bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish. | - | 4 | 4 |
| | Jami: | 6 | 14 | 20 |

Trening mashg`ulotlari jarayonda bo`lajak tarbiyachilar innovatsiyalar, ularning tasnifi, didaktik hamda tarbiyaviy innovatsion g`oyalarga doir bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirildi. Mazkur bilimlarni o`zlashtirishlariga erishish maqsadida "Erkin yozish", "Ikki qismli kundaliklar",

“O`qitish bo`yicha qo`llanma”, “T-chizma” kabi interfaol metodlardan foydalanildi.

Trening mashg`ulotlari asosida bo`lajak tarbiyalanuvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bosqichi aniqlandi.

2.2. 2-jadval

Bo`lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bosqichlari.

| Bosqich | Faoliyat mazmuni | Tashkil qilish shakillari |
|---|---|---|
| 1- bosqich | Innovatsiya, innovatsion ta`lim, innovatsion faoliyat tushunchalari mohiyatini anglash, yangiliklarni tarbiya jarayoniga tadbiq etish bilan bog`liq nazariy bilimlarni egallash. | Pedagogika fanlarning o`qitish jarayoni. |
| 2-bosqich | Pedagogik faoliyatni yangilash borasidagi bilim, ko`nikma va malakalarni, yangilikni tarbiya jarayoniga kiritish bilan bog`liq shart-sharoitni yaratish ko`nikmalarini shakllantirish, yangilikni izlab topish, yangilik kiritish jarayonida qo`llaniladigan bositalar, metodlar vat a`lim shakllarini tanlash malakasini takomillashtirish. | Seminar-terninglarda, o`zaro takriba almashish jarayonida, o`quv va pedagogikamaliyot jarayonida. |
| 3-bosqich | Yangilik samaradorligini aniqlash uchun mezonlarni ishlabchiqish, loyiha yaratish malakasini egallash, yangilikni bevosita tarbiya jarayonida qo`llash va kiritilgan yangiliklarning monitoringini o`tkazish. | Pedagogic amaliyot jarayonida, loyiha ishlari va bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash jarayonida. |

Tajriba-sinov ishlari pedagogika kolleji o`quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda qisqa va o`rtacha muddatli treninglardan foydalanish samarali ekanligini ko`rsatdi. Ana shu sababli biz quyidagi mazkur trenirlarning har biriga alohida-alohida to`xtalib o`tamiz.

1. Qisqa muddatli trening – bu tenglovchilarda biror mavzuga doir yangi bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan jadal sur`atdagi

faoliyatdir. Buning uchun eng avvalo, qisqa muddatli treningni loyihalab olish va amalgam oshirish dasturini tuzib olish lozim. (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

"Tarbiya jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish" treningining texnalogik modeli

| | |
|---|---|
| Treningni o`tkazish joyi: | Toshkent pedagogika kolleji |
| Ishtirokchilar | Toshkent pedagogika kolleji o`quvchilari |
| Treningni o`tkazish muddati | 1 kun |
| Treningning maqsadi | Ishtirokchilarda tarbiyaviy ish jarayonida grafik organayzerlardan foydalanishga doir ko`nikma va malakalarni shakillantirish |
| Kutiladigan natija | Trening yakunlangach, ishtirokchilar tarbiyaviy ishning o`ziga xosliklari, material mazmuni, tarbiyaviy ishni tashkil etish shakli, shart-sharoitlari bilan bog`liqlikda "Toifalash jadvali", "Insert jadvali", "Konseptual jadval", "SWOT-tahlil jadvali", "T-chizma", "Veni diagrammasi", "Nima uchun?", "Baliq skeleti", "Peramida", "Nilufar guli" kabi grafik organayzerlardan foydalana olish malakasiga ega bo`lishadi. |

2.2.4-jadval

**“Tarbiya jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish” treningi dasturi**

| Vaqti | Mazmuni |
|---|---|
| 08.30-09.00 | Treningning ochilishi. Ishtirokchilarni mashg`ulotga jalb etish. |
| 09.-10.15 | Axborotlar tahlil etish, taqqoslash va umumlashtirishga xizmat qiluvchi grafik tashkilotchilar: “T-chizma”, “Veni diagrammasi”. |
| 10.15-10.30 | Nonushta |
| 10.30-11.30 | Axborotlarni tasniflash, o`rganilgan tushunchalar o`rtasi aloqadorlik hosil qilishga imkon beruvchi grafik tashkilatchilar: “Toifalash jadvali”, “Kontseptual jadval”, “Insert jadvali”. |
| 11.40-13.00 | Muammoni qo`yish, tahlil etish va hal etishga yordam beruvchi grafik orgahayzerl;ar: “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Peramida”, “Nelufar guli”. |
| 13.00-14.00 | Tushlik |
| 14.00.-16.00 | Trening natijalarini tahlil etish. Mustaqil ish topshiriqlarini bajarish. Treningni tugallash. |

2. O`rtacha muddatli treninglar 5-6 kunda mo`ljallangan bo`lib, ishtirokchilarning murakkab tarkibiy qismlardan iborat yangi malumotlar bilan tanishish maqsadida tinglovchilar bilan olib boriladigan faoliyatdir.

2.2.5-jadval

**“Tarbiya jarayoniga girafik organayzerlardan foydalanish” treningining texnalogik modeli**

| | |
|---|---|
| Treningni o`tkazish joyi: | Toshkent pedagogika kolleji |
| Ishtirokchilar | Tashkent pedagogika kollejining o`qituvchilari |
| Treningni o`tkazish muddati | 5 kun |
| Treningning maqsadi | Ishtirokchilarda tarbiya jarayonida innovatsion texnalogiyalardan foydalanish haqidagi bilimlarni; tarbiyaning zamonaviy texnologiyalarini qo`llash jarayonida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish ko`nikmasini shakllantirish. |
| Kutiladigan natija | Trening yakunlangach, ishtirokchlar tarbiyaning shakl, metod va vositalarini tanlab olish; guruhlarda ishlashni tashkil etish; boshqaruv usullarini va vositalarini tanlab olish; texnalogik xarita ko`rinishida ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarni loyihalay olish; o`quvchilar uchun tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqish malakalarini egallashadi. |

Grafikli organeyzarlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko`rgazmali taqdim etish vositasi.

Grafik tashkilotchilar:

1) ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo`lib chiqish, urganilayotgan tushunchalar (voqea va xodisalar, mavzular) o`rtasidagi aloqa va o`zaro bog`liqlikni o`rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B/jadvali;

2) ma`lumotlarni taxlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: T-jadvali, Veni diagrammasi;

3) muammoni aniqlash, uni xal etish, taxlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: “Nima uchun?” “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” inrerxik diogrammasi, “Kaskad” tarkibiy- mantiqiy sxema.

Grafik tashkil etuvchining turi va xususiratlari: mustaqil o`qish vaqtida olgan ma`lumotlarni, eshitgan ma`ruzalarni tizimlashtirishni ta`minlaydi; olingan ma`lumotni tasdiqlash, aniqlash, chrtga chiqish, kuzatish. Avval o`zlashtirish ma`lumotlarni bog`lash qobiliyatini shakllashtiririshga yordam beradi.

O`quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi;

1) o`quvilar insert jadvalini to`ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o`zlari to`ldiradilar;

2) o`quv jarayonida olingan ma`lumotlarni alohida o`zlari tizimlashtiriradilar – jadval ustunlariga kiritadilar matnda begilangan quyidagi belgilarga muvofiq:

“V” – men bilan ma`lumotlarga mos;

“_” - menbilan ma`lumtlarga zid;

“+” – men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to`ldirish talab etiladi.

| V | + | - | ? |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |

**2.2.1- rasm. Insert jadvali namunasi.**

